

## *Tarixingdir ming asrlar ichra pinhon, o‘zbekim*

*(tarixi)*

O‘zbek tili ham qadimiy tillardan sanalib, o‘ziga xos tarixi bor. Zero, Erkin Vohidov ta’biri bilan aytganda, *Tarixingdir ming asrlar ichra pinhon, o‘zbekim, Senga tengdosh Pomiru oqsoch Tiyonshon, o‘zbekim*. O‘tmishi ming asrlar bo‘lgan o‘zbek tili taqdiriga ijodkorlar, tilshunoslar, qalam ahli asrlar davomida befarq bo‘lishmagan. Tarixga nazar tashlasak, X-XI asrlarda M.Qoshg‘ariy o‘zining “Devonu lug‘otit turk” shoh asarini yozib, mavjud turkiy so‘zlarni yig‘ib lug‘at tartib bergan. O‘sha davrdayoq til sofliги uchun qayg‘urib, o‘zining qarashlarini bayon etgan. *Qumg‘on* so‘zi bo‘la turib, tojik tili elementi bo‘lgan *oftobani* ishlatishga hojat yo‘qligini ta’kidlagan. XV asrda zabardast ijodkor, mutafakkir A.Navoiy maydonga chiqib, *eski o‘zbek tiligi asos soldi* va go‘zal til ekanligini “Muhokamatul lug‘atayn” asarida tarannum etdi. XX asr boshlarida ma’rifatparvar ijodkorlar A.Fitrat, A.Avloniy, M.Behbudiylar o‘zbek tilini takomillashtirish maqsadida darsliklar, maqolalar yozishdi, o‘sha davrda *ijtimoiy buyurtma bo‘lgan xalq savodxonligini ko‘tarish* maqsadida diqqatga sazovor faoliyat olib borishdi. XX asr o‘rtalarida zukko tilshunoslar tomonidan o‘zbek tilining *ilmiy grammatikasi* yaratildi va o‘zbek tilshunosligida mavjud til sathlari bo‘yicha qator tadqiqotlar yaratildi. XXI asr boshlarida esa *o‘zbek milliy grammatikasi* yaratildi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

*(buguni)*

Darhaqiqat, bugungi kunda milliy qadriyatlarimizga bo‘lgan e’tibor, ehtiromni o‘zgacha ta’riflash mumkin. Ham moddiy, ham nomoddiy qadriyatlarimiz tiklandi. Moddiy sanalgan osori atiqalar, o‘zbek milliy buyumlari; nomoddiy bo‘lmish urf-odatlarimiz, an’analarimizga munosabat o‘zgardi. Ayniqsa, millatimizning eng aziz ne’mati sanalgan qadrlı tilimizga e’tibor kuchaydi. 2016 yil may oyida alohida A.Navoiy nomidagi O‘zbek tili va adabiyoti universitetining ochilishi, 80 000 so‘zni qamrab olgan o‘zbek tilining izohli lug‘ati, 85 000 so‘zli imlo lug‘ati, maktab o‘quvchilari uchun alohida paronim so‘zlar hamda

graduonimik lugʻatlarning yaratilishi tilimizga boʻlgan ehtiromning yorqin namunasi sanaladi. Hukumatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev tomonidan Oʻzbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 30 yilligini keng nishonlash borasidagi qabul qilgan qarorlari millatimiz faxri boʻlgan tilga boʻlgan yuksak eʼtiborning nishonasidir.

Oʻzbek tilshunosligi *istiqlol davrida* juda koʻp yutuqlarga erishdi. Oʻzbek lingvistikasining rang-barang sohalari rivoj topdi. 1.Lingvopersonologiya, yaʼni tilning shaxs, jamiyat, madaniyat, urf-odat bilan munosabatini oʻrganadigan *amaliy tilshunoslik* ravnaq topdi (antroponimiya, evfemiologiya, metaforalogiya...)

2.Bugungi kunda oʻzbek tilining ham *dunyo tillari qatoridan oʻrin olishini maqsad qilib qoʻygan til korpusi* ham rivoj topmoqdaki, bu quvonarli hol. Ayni kunlarda koʻplab tilshunoslarning diqqati Oʻzbek tilining milliy korpusini yaratishga qaratilgan. Shuning uchun milliy korpusning talabiga koʻra turli mazmundagi lugʻatlarni yaratishga ahamiyat qaratilyapti.

#### *(til borasidagi muammolar)*

Oʻzbek tiliga davlat tili maqomi berilishi oʻz davrida tom maʼnoda olamshumul voqeadir. Chunki, mutaxassislarning soʻzlariga qaraganda, bugungi kunda har ikki xaftada bitta til yoʻqolib bormoqda. Bu oʻz navbatida oʻsha tilda soʻzlashuvchi xalqlarning yoʻqolishini anglatadi. Olimlarning fikricha, *til yashab qolishi uchun undan kamida bir million kishi soʻzlashishi kerak ekan*. Ollohga shukr, oʻttiz millionli katta millatimiz. Katta mamlakatimiz. Tilimiz yoʻqolib ketmaydi, ammo buzilib ketayotgani koʻngillarda xavotir uygʻotadi. Til borasidagi yutuqlar bilan bir qatorda muammolarimiz ham mavjud. Ular asosan “Davlat tili haqida”gi qonunning ijrosi bilan bogʻliq.

Holatga nazar solsak, keyingi paytlarda odamlarda tilimizga eʼtibor tobora pasayib ketyapti. Tilning ham ijodkori, ham isteʼmolchisi boʻlgan xalq oʻz lisonini aslo beeʼtibor qoldirmasligi lozim. Tabiiyki, darvozani oʻylamay-netmay katta ochib qoʻysak, begona soʻzlar ham bemalol ostona hatlab, uy toʻridan joy

olaveradi. Biz chet tillardan aslo soʻz qabul qilmaslik lozim, degan daʼvodan mutlaqo yiroqmiz, albatta. Zero, A.Oʻtar yozganidek,

*Har tilni biluv emdi bani odama jondir,*

*Til vositayi robitai olamiyondir.*

*Gʻayri tilini saʼy qiling bilgali, yoshlar*

*Bilmakka ani gʻayrat eting, foydali kondir.*

Hammaniz yoʻlda yuramiz, koʻchaning ikki chekkasidagi shiorlar, ishxonalarning, doʻkonlarning, har xil firmalarning nomlari diqqatimizni tortadi, deyarli yarmi chet soʻzlar bilan nomlangan. Doʻkonlar nomi birdaniga "market", "super market" boʻlib ketdi. "Super" degani lotin tilida "katta", "zoʻr" degani, nega biz "katta doʻkon" deyolmaymiz?! Oʻzbek boʻla turib daraxt turlari, qovun, olma va uzum navlari, nabotot hamda hayvonot nomlarini toʻla-toʻkis farqlaymizmi?

Shuning uchun bugungi kunda ona tili taʼlimi oldida nutq savodxonligi, oʻquvchilarning yozma va ogʻzaki nutq koʻnikmalarini shakllantirish vazifasi turibdi. Professor B.Mengliyev rahbarligida oʻquv lugʻatlarining rang-barang turlari yaratildiki, bu faoliyat negizida oʻquvchi va kitobxonning SOʻZ boyligini oshirish, oʻzbekcha soʻzga muhabbatni shakllantirish yotadi.

### **Tilni toza saqlab qolish uchun nima qilish kerak?**

1. Dunyodagi barcha tillar ichki imkoniyatlar asosida boyiydi, chekkadan soʻzlar maʼlum bir muqobillar boʻlmagandan kiradi. Aytish mumkinki, internet, kompyuter, lizing, marketing, kollej, litsey, modernizatsiya, fleshka, klik singari leksemalarning tilimizda qoʻllanilishining qonuniy asoslari bor. Ammo chetdan kirgan soʻzlarni oʻrinsiz ishlataverish til taraqqiyoti uchun aks taʼsir koʻrsatishi mumkin.

Davlat xuddi mana shu jarayonni nazoratiga olib, boshqarib turishi kerak. Bu ish nihoyatda dolzarbligidan til bilan shugʻullanadigan maxsus boshqarma tashkil qilsa arziydi.

2.Oʻzbek tili jozibasini tiklashning yana bir yoʻli xalqimiz savodxonligini

oshirishga mo'ljallangan turli katta-kichik cho'ntak lug'atlarini hamda o'zbek tilini o'rganishga mo'ljallangan mobil ilovalar(xorijliklar uchun ham qulay)ni tayyorlash lozim.

3. Televideniya ayrim reklamalar o'rnida tilimizda mavjud birliklar ma'nosi izohlanishiga ahamiyat qaratishimiz mumkin. Masalan, kundalik turmushimizda **“Qarzi qavola”** milliy birikmasi ko'p ishlatiladi. Uning “qarz-qavola” shakli ham bor. Arabcha “qarz” so'zining ma'nosi hammamizga ma'lum. Xo'sh, unda unga “qavola” so'zi qanday qo'shib qolgan va bu so'z qanday mazmunga ega? “O'zbek tilining etimologik lug'ati”da izohlanishicha, “qavola” so'zi asli “kafolat berdi” ma'nosini anglatgan. Xullas, “qarzi qavola” birikmasi “kafolat bilan olingan qarz” ma'nosini anglatadi. **Maosh** deganda biz bugun oylik ish haqini tushunamiz. Aslida bu so'zning ma'nosi tiriklik, hayot kechirish, yashamoqdir, ya'ni o'zagi yashamoq.

4. Tarbiyaviy ahamiyatga molik xalq maqollarini keng tarqib qilish asnosida til boyligini oshirish. Deylik, “Ustoz otangdek ulug'” mi yoinki “Ustoz otangdan ulug'” . Darhaqiqat, “Ustoz otangdan ulug'” . Chunki, ota farzandni dunyoga keltiruvchi zot va sababchi. Ustoz o'g'itlari orqali farzand jamiyatda ulug'likka erishadi.

5. Tilning milliy jozibasini oshiruvchi qudrat qonun emas, balki xalqning o'zidir. Chunki muayyan tilda hech kim gapirmay qo'ysa, u ijtimoiy munosabatlar jarayoniga tatbiq etilmasa, u o'z jozibasini yo'qotadi. Bir so'z bilan aytganda, til millatning ma'naviy-ruhiy boyligi, mulki ekan, unga hurmat bilan qarash, e'zozlash, uning yuksalishi, tilimizning sofligi, boyligi yo'lida kurashish, milliy qadriyat darajasiga ko'tarish barchamizning burchimizdir.

*O'zbek tilshunosligi kafedrasi professori*  
*M.Q.Abuzalova*  
*O'zbek tilshunosligi kafedrasi*  
*o'qituvchisi N.K.Raximova*